

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YALGASHEV BUNYOD MAXMUDOVICH

**SAMARQAND VOHASI ETNOMADANIYATINING
EVOLYUTSIYASI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
(FALSAFIY-MADANIY TAHLIL)**

**09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi
(madaniyatshunoslik va madaniyat falsafasi)**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Yalgashev Bunyod Maxmudovich

Samarqand vohasi etnomadaniyatining evolyutsiyasi va o'ziga xos xususiyatlari
(falsafiy-madaniy tahlil)..... 3

Ялгашев Бунёд Махмудович

Эволюция и особенности этнокультуры Самаркандского оазиса
(философско-культурологический анализ)..... 25

Yalgashev Bunyod Makhmudovich

Evolution and features of the ethnoculture of the Samarkand oasis
(philosophical and cultural analysis)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 55

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YALGASHEV BUNYOD MAXMUDOVICH

**SAMARQAND VOHASI ETNOMADANIYATINING
EVOLYUTSIYASI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
(FALSAFIY-MADANIY TAHLIL)**

**09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi
(madaniyatshunoslik va madaniyat falsafasi)**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fal546 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ik-falsafa.@nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Nishanova Ozoda Djaloliddinovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Musayev Odil Raxmatovich
falsafa fanlari doktori, professor

Bababekov Akbar Dovurbayevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 2-may kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Ziyo ko'chasi, 3-uy. O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markaziy binosi, 2-qavat, 210-xona. Tel.: (+99871) 246-39-67, faks: (+99871) 246-39-67; E-mail: O'zMU@malakaoshirish.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (30-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-02-24; E-mail: info@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 18-aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil 18-apreldagi 4-raqamli reyestr bayonnomasi).



I.S.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, falsafa doktori (PhD)

O'.G'.Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi yillarda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar, globallashuv jarayonlari, turli qit‘alar va davlatlarda yuzaga kelayotgan inqirozlar, urushlar, madaniyatlar, diniy konfessiyalar to‘qnashuvi, qadriyatlarning qadrsizlanishi xalqlarning milliy madaniyatlarini, jumladan, etnomadaniyatlarini asrash va rivojlantirish zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda. Etnomadaniyat o‘z mohiyati va xususiyatiga ko‘ra inson hayoti, faoliyatining va ijtimoiy borliqning barcha tomonlari bilan bog‘liq polifunksional hodisadir. Etnomadaniyatlarda hozir hayot chorrahasida turgan yoshlar uchun ideal bo‘ladigan siymolar, simvollar, tajribalar mavjudki, ulardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda madaniy xilma-xillik, etnik-madaniy tafovutlar, madaniyatlararo o‘zaro ta‘sir hamda etnik guruhlarning etnomadaniy o‘ziga xosligiga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, qator rivojlangan mamlakatlarning ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida hududiy etnomadaniyatlar, ularni rivojlantirish omillari, mexanizmlari, rekreativ an‘analarning psixofiziologik holatga ta‘siri, etnomadaniyatga differensial yondashuv masalalari, etnomadaniy o‘ziga xoslikning bag‘rikenglik, multikulturalizm, akkultursiya hamda migratsiya kabi hodisalar bilan aloqasini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda milliy madaniyatni rivojlantirish, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida qadriyatlarga hurmat ruhini kuchaytirish, ma‘naviy merosni asrash hamda lokal etnomadaniyatlarga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaymoqda. Xususan, Samarqandda “Sharq taronalari”, Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Etno Karavan Saray”, Andijonda an‘anaviy “Madaniyat va do‘stlik”, Toshkentda “Hunarmandchilik va milliy qo‘g‘irchoqlar”, Qo‘qonda “Etnosport”, Buxoroda “Kashtado‘zlik”, “Milliy xalq o‘yinlari”, Xorazmda “Lazgi”, Surxondaryoda “Boysun bahori”, Qashqadaryoda “Etno and fashion week”, Farg‘ona va Termizda “Madaniy an‘analar va milliy taomlar” kabi xalqaro festivallar o‘tkazilmoqda. Zero, “mamlakatimizda madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma‘noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”¹. Shu bois, o‘zbek etnomadaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan Samarqand vohasi etnomadaniyatining evolyutsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini falsafiy-madaniy jihatdan o‘rganish hamda tadqiq etish zaruratidir.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 25-dekabrda madaniyat va san‘at sohasi rahbarlari bilan bo‘lgan uchrashuvdagi nutqi // <https://interfax.uz/shavkat-mirziyoyev-madaniyat-va-san-at-sohasi-rahbarlari-bilan-majlis-o-tkazdi/>

PF-4956-sonli, 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli, 2022-yil 15-yanvardagi “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PF-52-sonli Farmonlari, 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli Qarori hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalq madaniyatini tabiat, jamiyat, ijtimoiy muhit, turmush tarzi hamda urf-odatlar bilan bog‘liq holatda talqin etish qadimgi G‘arb va Sharq mutafakkirlari ijodida yuqori ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Antik davr mutafakkirlaridan Aristotelning “Metafizika” asarida insonning ijodkorligi doimo tabiat bilan bog‘liqligi, inson tabiatni qayta yaratishi, madaniyat bunda shakllanish va ijodkorlik mahsuli ekanligi ilgari surilgan bo‘lsa,

Platonning “Ideal davlat” asarida madaniyatning aholi turmush tarzini takomillashtirishdagi roli, mamlakatdagi o‘ziga xos turmush tarzi, birlik va birdamlik tuyg‘ularini shakllantirishdagi ahamiyatiga urg‘u berilgan².

Qadimgi Sharq manbalarida madaniyat xalqni ijodkorlikka yetaklashi hamda jamiyatda axloqiy yetuklikni ta’minlashi ilgari suriladi. Xususan, “Avesto”da insonlarning axloqiy me’yorlarga amal qilishi xalq madaniyatining eng yuksak ibtidosi ekanligi bayon etilgan bo‘lsa³, Xitoy mutafakkiri Konfutsiy o‘zining “Lun yuy” asarida madaniyatni tabiatdan ustun qo‘yib, modomiki, tabiat madaniyatdan ustun bo‘lsa, bu vahshiylikka, agarda madaniyat tabiatdan yuqori bo‘lsa, bu ilmga olib kelishini ta’kidlagan⁴.

Beruniyning “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida milliy an’ana va marosimlarning diniy-etnik masalalari; Farobiyning “Baxt-saodatga erishuv haqida” asarida jamiyatdagi ijtimoiy muhitning xalq madaniyatiga ta’siri ochib berilgan. Farobiyning fikricha, “Inson o‘z-o‘zidan baxtli ham bo‘lolmaydi, kamolotga ham erisholmaydi. Bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunar egallashiga, bilimiga va fozil jamiyatda yashashiga bog‘liq”⁵.

Xorij olimlaridan Fredrik Barth, Sandra Wallman, Daniel Bell, Elie Kedourie, Rogers Brubaker, Ronald Cohen, B.Klein, Ulrich Rudolf, Aleksey Gorin, Simone Mantellini kabi olimlar etnoslarning kelib chiqishi, etnik qatlamlar, ibtidoiy

² Аристотель. Метафизика / Пер. на грек. Д.Первова и В.Розанова. – М.: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2006. – 232 с.; Платон. Государство. Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ. ст. Е.Н.Трубецкого. Комментар. В.Ф.Асмуса. Примеч. А.А.Тахо-Годи. – М.: Академический проект, 2015. – С. 15.

³ Avesto. A.Mahkamov tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001; Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1968. – 486 b.

⁴ Конрад Н. Очерк древней китайской литературы // Беседы и суждения Конфуция. – СПб., 2001. – С. 153.

⁵ Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida // Abu Nasr Farobiy risolalar. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 64.

tasavvurlar, etnologiya va antropologiya, urf-odat, an'ana, marosim, bayram, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq etnomadaniy jarayonlarni o'rganganlar⁶.

MDH olimlaridan V.Radlov, S.Baychorov, Y.Bromley, S.Arutyunov, L.Lashuk, Y.Kuznesova, L.Gumilev, I.Yeroxin, Y.Uzlov, T.Gerasimenko, N.Xrenov, A.Afanaseva, M.Shavayevalar etnomadaniy jarayonlarning nazariy-metodologik jihatlarini, etnomadaniy qadriyatlar hamda etnomadaniyatning o'ziga xos funksiyalarini tadqiq etganlar⁷.

Mamlakatimizda etnomadaniyat sohasi turli fan yo'nalishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, tarixchilar A.Asqarov, A.Ashirov, K.Shoniyozev, X.Doniyorov, F.Tolipovlar o'zbek xalqi etnogenezi va tarixi, etnografiyasini o'rganishgan. A.Ataxodjayev, K.Pardayev, T.Shirinov va G'.Tagayev aynan Samarqand vohasining tarixi, genezisi hamda etnografik jihatlarini tadqiq qilishgan⁸.

Folklorshunoslik, filologiya va san'atshunoslik fanlari sohasida M.Abdiyev, A.Xonxo'jayeva, A.Turobov, I.Abdurahmonov, S.Aliyeva kabi olimlar Samarqand vohasi etnomadaniyatining morfologik jihatlarini, folklor va amaliy san'atning ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini tadqiq etishgan⁹.

⁶ Barth Fredrik. *Ethnic Groups and Boundaries*. – Oslo: Universitetsforlaget, 1969. – 92 p.; Wallman Sandra. *The Scope for Ethnicity*, in Wallman, *Ethnicity At Work*. – London: Macmillan, 1979. – 252 p.; Bell Daniel. *Ethnicity and Social Change*. – London: Routledge, 1991. – 199 p.; Kedourie Elie. *Nationalism*. – London: Hutchinson, 1960. – 151 p.; Brubaker Rogers. *Ethnicity, Race and Nationalism // Annual Review of Sociology*. – Los Angeles, 2009. – P. 21-42; Cohen Ronald. *Ethnicity: Problem and Focus in Anthropology // Annual Review of Anthropology*. – Illinois, 1978. – P. 379; Klein Barbo. *A World of Nations*. – New York, 2001. Volume 23. – P. 31.

⁷ Радлов В. Опыт словаря тюркских наречий. 1-й. Часть 1. – СПб., 1893. – С. 127; Байчоров С. Этимология этнонима ас // Проблемы этимологии тюркских языков. – Алма-Ата, Гылым, 1990. – С. 279-289; Бромлей Ю. Очерки истории этноса. – М.: Наука, 1983. – С. 57-58; Бромлей Ю. Этнос и этнография. – М.: Наука, 1973. – С. 237; Бромлей Ю. Этнические процессы в современном мире. – М.: Наука, 1987. – С. 447; Арутюнов С. Народы и культуры: развитие и взаимодействие. – М., 1989. – 126 с.; Бромлей Ю. Очерки теории этноса. – М.: Наука, 1983. – 412 с.; Лашук Л. Этническая история Печорского края // Краткие сообщения Института этнографии. – М.: УРО РАН, 1958. – С. 82; Кузнецова Е. Этнос и нация: концепции национальности идентичности // Перспективы Науки и Образования. Международный электронный научный журнал. – М., 2015. – С. 9-16; Гумилев Л. Этносфера. История людей и история природы. – М., 1993. – 135 с.; Ерохин И. Этно-социальные традиции и ценности казачества // Культура и цивилизация. – Лондон, 2013. – С. 32; Узлов Ю. Этнокультура и ее трансформация в современном мире // Теория и практика общественного развития. – Краснодар, 2009. – С. 97-101; Герасименко Т. «Этнос» и «Культура»: трактовка понятий и подходы к изучению // Вестник ОГУ. – М., 2015. – С. 178-184; Хренов Н. Традиционная культура в эпоху глобализации. Традиционная культура. – СПб.: Нестор-История, 2005. – С. 73; Афанасьева А. Этнокультурное образование: сущность, структура содержания, проблемы совершенствования // Проблемы педагогики и психологии. – СПб.: СПГУТД, 2009. – С. 190; Шаваева М. Этнокультура как многофункциональная система взаимодействия. Канд. филос. наук. ... автореф. дисс. – Ростов-на-Дону, 2004. – 20 с.

⁸ Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2002. – B. 54-60; Ashirov A. Etnologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014. – B. 120; Shoniyozev K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001. – 461 b.; Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 87; Tolipov F. Nurota vohasi aholisi oilaviy turmush tarzida jamoa an'analari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Tarix fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2006. – B. 99-100; Ataxodjayev A. Ilk o'rta asrlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlarda turk-sug'd munosabatlari. Tarix fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2011. – B. 158; Pardayev K. O'rta Zarafshon (Miyonqol) vohasining XIX-XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Tarix fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2003. – B. 12; Shirinov T. Tariximiz etyudlari. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 191; Tagayev G'. Zarafshon vohasida etnik guruhlarning joylashuvi tarixidan (Samarqand viloyati misolida). Samarqand va Zarafshon vohasi tarixi zamonaviy tadqiqotlarda. Samarqand o'qishlari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 452.

⁹ Abdiyev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunarlar materiallari asosida). Fil. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2005. – B. 70; Xonxujayeva A. Tojik tilining to'y va motam marosimlariga oid etnografik leksikasi (Samarqand lahjasi asosida). Fil. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 50 b.; Turobov A. Samarqand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili. Fil. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1999. – B. 52; Abdurahmonov I. O'zbek xalq o'yinlari va tomoshalari (XX asrda O'zbekistonning janubiy viloyatlari

O'zbek faylasuf olimlaridan S.Shermuhamedov, T.Maxmudov, I.Jabborov, U.Qoraboyev, A.Ochildiyev, N.Nazarov, O.Nishonova, O.Musayev, R.Komilov, U.Utanova, U.Raxmatullayeva, F.Atamuratova, N.Jo'rayeva, R.Baratov, S.Abdikarimova, A.Muzaffarov, G.Shadimetova, U.Mengliqulov, F.Umarova, D.Qoraboyevalar o'zbek etnomadaniyatining o'ziga xos jihatlari, hududlarning milliy etnik madaniyati, milliy urf-odatlar, an'analar, bayramlarning etnomadaniy, estetik xususiyatlari, o'zbek etnotafakkuridagi yangilanish jarayonlari, til va dinning yaxlit etnomadaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati, kiyinish madaniyati, salohiyatli mutaxassislar tayyorlashning etnomadaniy jihatlari, tarixiy-madaniy meros fenomenining milliy o'zlikni anglashga ta'siri kabi masalalarni o'rganishgan¹⁰.

Xususan, faylasuflardan U.Qoraboyev etnomadaniyatning genezisi, turlari, o'zbek xalqi urf-odatlari, an'ana va marosimlarini tadqiq etgan. O.Nishonova tomonidan o'zbek etnomadaniyatidagi transformatsiya va innovatsiya jarayonlari izchil tahlil qilingan bo'lsa, O.Musayev O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini o'rgangan. R.Komilov o'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va transformatsiyasini, U.Utanova o'zbek xalqi madaniyatining genezisi, tizimlari va ko'rinishlarini, F.Atamuratova etnomadaniyatda sodir bo'layotgan evolyutsion jarayonlar va ularning milliy mentalitetda namoyon bo'lishi masalasini, G.Shadimetova milliy bayramlarning shaxs badiiy-estetik tarbiyasidagi nazariy va amaliy ahamiyatini, U.Mengliqulov Surxon vohasi etnomadaniyatini tadqiq etgan.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan olimlarning tadqiqotlarida o'zbek etnomadaniyatining u yoki bu tomoni o'rganilgan. Ammo Samarqand vohasi etnomadaniyati bugungi kunga qadar yaxlit falsafiy tadqiqot obyekti bo'lmagan.

misolida). San'atsh. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1997. – B. 19; Aliyeva S. 1970-90-yillarda O'zbekiston xalq kulolchiligi (An'analarning saqlanish va rivojlanish muammolari). San'at. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1996. – B. 91.

¹⁰ Shermuhamedov S., Ochildiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Farg'ona, 2000. – 42 b.; Mahmudov T. Avesto haqida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 383 b.; Jabborov I. O'zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. – 239 b.; Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2003; Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 239 b.; Qoraboyev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. – Toshkent: Adolat, 2003. – 225 b.; Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. – Toshkent: Tafakkur-bo'stoni, 2011. – 193 b.; Qoraboyev U. Madaniyat masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 286 b.; Qoraboyev U. Odatnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. T. 1. – 388 b.; Qoraboyev U. Odatnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. T. 2. – 285 b.; Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari. Fals. fan. dok. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2016. – 202 b.; Musayev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. Fals. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 59 b.; Komilov R.R. O'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va transformatsiyasi. Fals. fan. dok. (DSc) ... diss. – Samarqand, 2023. – 219 b.; Utanova U. Mustaqil O'zbekistonda xalq madaniyatining ravnaqi (falsafiy-madaniy yondashuv). Fals. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 24 b.; Utanova U. Xalq madaniyati: tarixi, nazariyasi, muammolari. – Toshkent, 2007. – 82 b.; Raxmatullayeva U. O'zbek xalqining kiyinish madaniyati: an'anaviylik va zamonaviylik (falsafiy-madaniy yondashuv). Fals. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – 24 b.; Atamuratova F. Mustaqillik sharoitida o'zbek milliy mentalitetida etnomadaniy jarayonlar (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – 24 b.; Jo'rayeva N. Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro: Durdon, 2018; Baratov R. O'zbekistonda yetuk kadrlar tayyorlashning etnomadaniy xususiyatlari va tamoyillari. Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent, 2020. – 54 b.; Abdikarimova S. Zamonaviy o'zbek oilasi etnoan'alarida transformatsiya jarayonlari. Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. – Samarqand, 2020. – 44 b.; Shadimetova G. Milliy bayramlarning estetik xususiyatlari. Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 56 b.; Mengliqulov U. Surxon vohasi etnomadaniyati (genezisi, xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari). Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 50 b.; Umarova F. Modernizatsiya va o'zbek etnotafakkuridagi yangilanish jarayonlari. Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 47 b.; Qoraboyeva D. Tarixiy-madaniy meros fenomenining milliy o'zlikni anglashga ta'siri. Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 48 b.

Shu bois, ushbu dissertatsiyada Samarqand vohasi etnomadaniyatini o'rganish, mazkur ko'p millatli hududda milliy identiklikni saqlash, etnomadaniy urf-odatlarining ijtimoiy-madaniy jihatlarini ochib berishga harakat qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy, madaniy, diniy qadriyatlari va hozirgi zamon" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand vohasi etnomadaniyatining evolyutsiyasi va o'ziga xos xususiyatlarini falsafiy-madaniy nuqtayi nazardan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand vohasi etnomadaniyatining genezisi va evolyutsiyasini tahlil qilish; o'zbek etnomadaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan Samarqand vohasi etnomadaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini asoslash;

Samarqand vohasi etnomadaniyatiga turli millat vakillari madaniyatining ta'sirini ochib berish;

ziyosat turizmining Samarqand vohasi etnomadaniyati takomillashuviga ta'sirini ilmiy asoslash;

Samarqand etnomadaniyatidagi transformatsiya va innovatsiya jarayonlarini tahlil etish.

Tadqiqot obyektini Samarqand vohasi etnomadaniyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Samarqand vohasi etnomadaniyatining evolyutsiyasi va o'ziga xos xususiyatlarining falsafiy-madaniy jihatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, qiyosiy tahlil, kuzatuv, suhbat, intervyu, so'rovnoma kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

etnomadaniyatning o'z mohiyatini saqlab qolish bilan bir qatorda aholi migratsiyasi, globallashuv, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning o'zgarishi, sivilizatsiyalar to'qnashuvi, demografik tendensiyalar kabi ijtimoiy-tarixiy jarayonlar ta'sirida tashqi integratsion aloqalariga ega sistema sifatida transformatsiya va modernizatsiyalashishga moyil voqelik ekani asoslangan;

Samarqand vohasi etnomadaniyati o'z tarixiy-madaniy paradigmalariga ega ijtimoiy-madaniy fenomen ekanligi asoslanib, vohadagi tojik, eroniy, tatar, arman, rus, arab kabi turli etnik guruhlar madaniyati titul millat bilan integratsiyaga kirishishi ularning mental, komplekslik, sinkretiklik, universallik, o'zgaruvchanlik xususiyatlari asosida ochib berilgan;

Samarqand vohasi etnomadaniyatining aksiologik va praksiologik xususiyatlari hamda uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan etnoslarning o'zaro madaniy integratsiyasi, tarixiy qismatning umumiyliigi, voha hududi bo'yicha joylashuvidagi demografik balansi, ijtimoiy norma va qadriyatlar, lingvistik, etnoma'naviy va diniy e'tiqod kabi etnosotsial omillar, etnoslar etnomadaniyatidagi o'zaro obyektiv aloqadorlik, umumiylik va ayrimlik, xususiylik, mental farq asoslangan;

Samarqand etnomadaniyati identiklikni saqlab qolishga qaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribalari orqali madaniy paradigmalarni asrashi, diaxron aloqalari hamda tipologik xususiyatlariga ko'ra gnoseologik funksiyasi asosida milliy ongni

shakllantirish omili ekanligi, diffuzionizm, baynalminallashuv va vorisiylik tamoyilining etnogenetik jihatdan milliy taraqqiyotga pozitiv ta'siri ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

etnomadaniyatdagi milliy taraqqiyotga mos ko'rinishlar, belgilarni asrab -avaylash va rivojlantirish borasida ijtimoiy-tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy institutlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

milliy va umuminsoniy, an'anaviy va zamonaviy, diniy, oilaviy-maishiy qadriyatlarining xalqimiz ma'naviy madaniyatiga, psixofiziologiyasiga, hayot tarziga ta'sirini ratsionallashtirish yo'llari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi g'oyalardan etnomadaniyat, xususan, Samarqand vohasi etnomadaniyatiga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek, "Falsafa", "Tarbiya", "Madaniyatshunoslik" fanlaridan o'quv adabiyotlari tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda berilgan amaliy taklif -tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatida, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat", "Renessans", "O'zbekiston tarixi" kanallarida milliy madaniyatni rivojlantirish masalalariga oid ijtimoiy-madaniy ko'rsatuvlar tayyorlashda foydalanishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand vohasi etnomadaniyatining evolyutsiyasi va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

etnomadaniyatning o'z mohiyatini saqlab qolish bilan bir qatorda aholi migratsiyasi, globallashuv, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning o'zgarishi, sivilizatsiyalar to'qnashuvi, demografik tendensiyalar kabi ijtimoiy-tarixiy jarayonlar ta'sirida tashqi integratsion aloqalariga ega sistema sifatida transformatsiya va modernizatsiyalashishga moyil voqelik ekaniga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil ikkinchi yarim yillikka mo'ljallangan ish rejasining II bob "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida yoshlar siyosatini muvofiqlashtirish, mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash, besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish" yo'nalishining 13 va 25-bandlari ijrosi doirasidagi "Mahallalarda madaniyat va san'atni targ'ib qilish" hamda "Internet tarmog'ida O'zbek milliy kontentini rivojlantirish dasturini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash" mavzusidagi tadbirlarni tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 16-avgustdagi 4-13-21-2294-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar mamlakatimiz hududlaridagi yoshlarning ma'naviy-madaniy salohiyatini oshirish, ularning dunyoqarashida milliy mentalitetimiz, qadriyatlarimizga sadoqat g'oyalarni shakllantirishga xizmat qilgan;

Samarqand vohasi etnomadaniyati o'z tarixiy-madaniy paradigmalari ega ijtimoiy-madaniy fenomen ekanligi asoslanib, vohadagi tojik, eroniy, tatar, arman, rus, arab kabi turli etnik guruhlar madaniyati titul millat bilan integratsiyaga kirishishi ularning mental, komplekslik, sinkretiklik, universallik, o'zgaruvchanlik xususiyatlari asosida ochib berilgan ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatida foydalanilgan (Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2023-yil 19-sentabrdagi 14-08-2129-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni yanada mustahkamlashga, turli millat vakillarining o'ziga xos madaniyatini o'z ichiga olgan yagona o'zbek etnomadaniyatini rivojlantirishga yordam bergan;

Samarqand vohasi etnomadaniyatining aksiologik va praktsiologik xususiyatlari hamda uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan etnoslarning o'zaro madaniy integratsiyasi, tarixiy qismatning umumiyligi, voha hududi bo'yicha joylashuvidagi demografik balansi, ijtimoiy norma va qadriyatlar, lingvistik, etnoma'naviy va diniy e'tiqod kabi etnosotsial omillar, etnoslar etnomadaniyatidagi o'zaro obyektiv aloqadorlik, umumiylik va ayrimlik, xususiylik, mental farq asoslanganligiga oid ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston Teleradiokanali" Davlat muassasasining "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2022-yilda efirga uzatilgan "Ko'hna manzillar", "Tarix va yangi talqin" ko'rsatuvlarining "Samarqand voha madaniyatining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri" hamda "Samarqand – ziyorat turizmi maskani" mavzusidagi sonlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston Teleradiokanali" Davlat muassasasining 2023-yil 1-avgustdagi 02-06-1147-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar "O'zbekiston tarixi" telekanali dasturlarini Samarqand vohasi etnomadaniyati haqidagi yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyishiga hamda aholining etnomadaniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat tuyg'ularining kuchayishiga xizmat qilgan;

Samarqand etnomadaniyati identiklikni saqlab qolishga qaratilgan ijtimoiy -tarixiy tajribalari orqali madaniy paradigmalarni asrashi, diaxron aloqalari hamda tipologik xususiyatlariga ko'ra gnoseologik funksiyasi asosida milliy ongni shakllantirish omili ekanligi, diffuzionizm, baynalminallashuv va vorisiylik tamoyilining etnogenetik jihatdan milliy taraqqiyotga pozitiv ta'siriga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 648-son buyrug'iga asosan nashr etilgan "Etnomadaniyat" nomli o'quv qo'llanmada hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, markazning 2023-yil chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 30-oktabrdagi 4/17-4/4-10024-son hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat

markazining 2023-yil 7-avgustdagi 02-22/750-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar "Etnomadaniyat" o'quv qo'llanmasini Samarqand vohasiga oid yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyishi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida targ'ibotchilar uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, shuningdek, targ'ibot ishlarining samaradorligining ortishiga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (7 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Samarqand vohasi etnomadaniyatini o'rganishning falsafiy asoslari**" deb nomlangan. Mazkur bobda Samarqand vohasi etnomadaniyatining genezisi va evolyutsiyasi bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, voha aholisining ma'naviy madaniyati o'rganilgan. Ma'lumki, O'zbekiston hududi nafaqat Markaziy Osiyo, balki Qadimgi Sharq dunyosida ilk sivilizatsiyalar shakllangan maskanlardan biri hisoblanib, qadimgi Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Shosh va Farg'ona sivilizatsiyalari shular jumlasidandir.

Samarqand vohasi Pomir-Oloy tog'larining g'arbiy chekkasida, Zarafshon daryosining o'rta qismida joylashgan hudud bo'lib, asosan, tekisliklardan iborat. Voha aholisi qadimdan daryo bo'ylarida yashab, xo'jalik tarziga ko'ra, ko'proq dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Bundan tashqari, vohaning tog'lik va dasht hududlarida yarim o'troq etnik guruhlarning chorvachilik mashg'uloti voha etnomadaniyatiga ta'sir ko'rsatib kelgan.

Samarqand viloyati aholi soni bo'yicha bugun respublikada birinchi o'rinda turadi. Viloyatdagi aholi soni 4.047,1 mln. nafarni tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahriga (13,8 foiz, 556 535 ming nafar) to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda Urgut tumani 13,1 foiz (529 632 ming nafar), Pastdarg'om tumani 9,1 foiz (366 956 ming nafar)ni tashkil etadi. Eng past ko'rsatkich Kattaqo'rg'on shahrida

2,2 foiz (89 854 ming nafar), Qo‘shrabot tumaniga 3,3 foizlik (135 266 ming nafar) ko‘rsatkich to‘g‘ri keladi¹¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazini ochilishiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqida “Samarqand – milliy davlatchiligimiz va umuman, jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘ringa ega ekanligi hamda ushbu boqiy shahar O‘zbekiston tarixidagi ikkala Renessans davrining yuzaga kelishi va rivojida muhim rol o‘ynaganligi”¹²ni alohida ta’kidlagan edi.

Samarqand vohasi etnomadaniyati bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin: qadimgi davr etnomadaniyati (so‘g‘d madaniyati);

zardushtiyalar davri;

islom madaniyati davri;

o‘rta asrlar davri (Temuriylar davri madaniyati);

yangi davr (XIX-XXI asrlar).

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Zarafshon vodiysi tosh davridayoq ibtidoiy ajdodlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Bunga vodiyning serunum tuprog‘i, mo‘tadil iqlimi va yashash uchun qulay sharoiti sabab bo‘lgan. Urgut tog‘laridagi Omonqo‘ton, Bulung‘ur tumanidagi Qo‘turbuloq, Narpaydagi Zirabuloq, Samarqand shahridan topilgan ibtidoiy odamlar manzilgohlari shular jumlasidan. Qolaversa, Zarafshon vodiysining bir qancha hududida bronza davri manzilgohlari ham mavjud. Samarqand vohasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning eng dastlabkisi “Avesto”da keltirilgan bo‘lib, unda Zarafshon vodiysi ikki nom bilan – “Sug‘uda” va “Sug‘uda Gova” deb ta’riflanadi. Tarixchi S.Ismoilovning fikriga ko‘ra, “Zarafshon vodiysining aynan dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi yashaydigan hududlariga nisbatan “Sug‘uda Gova” tushunchasi qo‘llanilgan bo‘lsa, “Sug‘uda” atamasi shaharlarga, poytaxtga nisbatan ishlatilgan. “Avesto” zamonida Sug‘dning eng katta shahri, poytaxti, so‘zsiz, Samarqand bo‘lgan”¹³. Samarqand aholisining etnik tarkibi bir necha qatlamdan iborat bo‘lib, ularning eng qadimiylari so‘g‘dlardir. So‘g‘dlarning tili eroniy guruhiga mansub. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda Zarafshon vodiysida qadimiy So‘g‘d davlatining paydo bo‘lishi va gullab-yashnashi qadimiy Afrosiyob bilan bog‘liqdir.

Ta’kidlash joizki, Samarqand vohasi etnomadaniyatini shakllanishida diniy -mifologik qarashlarning ahamiyati yuqori sanalgan. Qadimgi So‘g‘dlar ijtimoiy hayotida otashparastlikning (zardushtiylik) o‘rni yuqori bo‘lgan, biroq mahalliy aholining aksariyat qismi “homiy” ruhlarga e’tiqod qilib kelishgan. Tarixiy yilnomalarda keltirilishicha, milodiy V-VII asrlarda Zarafshon vodiysida mahalliy aholi Kaspiy dengizining sharqiy qismidagi jamiki mulklarda chuqur hurmatga sazovor bo‘lgan Desu ruhiga sig‘inishgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, mahalliy aholi tomonidan Desu ruhi sharafiga o‘tkazilgan marosimda beshta tuya, o‘nta ot, yuzta

¹¹ Aholi haqida ma’lumot – Viloyat bo‘yicha. Samarqand viloyati Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi // <http://tizim.sammahalla.uz/population>.

¹² Mirziyoyev Sh. Samarqand shahrida Buyuk ipak yo‘li xalqaro turizm markazining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan // <https://human.uz/2/16/8656>.

¹³ Ismoilov S. “Samarqand” toponimi to‘g‘risida. Samarqand va Zarafshon vohasi tarixi zamonaviy tadqiqotlarda. Samarqand o‘qishlari – I. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 434.

qo'chqor qurbonlik qilingan. Ba'zida qurbonlik qilingan hayvonlar soni mingga yetgan. Shundan ma'lum bo'ladiki, Desu ruhi So'g'dlar ijtimoiy hayotida asosiy diniy e'tiqod manbaalaridan biri sanalgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, vohada Zardushtiylik dinining nufuzi yuqori bo'lgan hamda shu din asosida shakllangan etnomadaniyat qadimiy sug'diylar ijtimoiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. So'g'diylarning kolonial harakati orqali zardushtiylik butun hudud bo'ylab tarqalgan. Dastlab, quyoshga sig'ingan so'g'diylar, keyinchalik uning yerdagi zarrasi deb olovga sig'ina boshlashgan.

Voha hududiga VIII asrda Islom dinining kirib kelishi va islom madaniyatining yoyilishi aholi turmush tarzini o'zgarishiga olib kelgan bo'lsada, zardushtiylik dini tartib-qoidalarining ayrimlari hamon vohaning to'y, motam marosimlari hamda milliy kiyimlarida saqlanib kelmoqda. Movarounnahr hududi arablar tomonidan istilo qilingandan so'ng hududning etnik-demografik qiyofasi ham o'zgara boshlagan. Jumladan, Samarqand vohasining cho'l va dasht hududlarida yashaydigan ko'chmanchi (chorvador) turkiy qabilalari orasida o'troqlashuv jarayoni yuz beradi.

Samarqand vohasi etnomadaniyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Vohada hunarmandchilikning turli sohalari, ya'ni to'qimachilik, gilamdo'zlik, kashtachilik, do'ppido'zlik, kulolchilik, qog'oz ishlab chiqarish, nonvoychilik kabilar asrlar mobaynida o'z mashhurligini saqlab kelmoqda. Jumladan, Samarqandda gilamdo'zlik tarixi miloddan avvalgi I ming yillikka borib taqaladi. Samarqandda gilamning patli va patsiz, to'qima, tikma va bosma turi keng tarqalgan.

Vohada kulolchilik ham keng rivojlangan. Bugungi kunda Samarqand badiiy kulolchilik maktabi o'zining asrlar davomida shakllanib kelgan "Afrosiyob sopol" an'analarini davom ettirib kelmoqda. "Afrosiyob sopol" O'rta asrlar kulolchilik san'atining o'ziga xos va yorqin bir ko'rinishi ediki, uning an'analari, shakliy tasvir usullari hozirgi zamon Samarqand maktabi ustalarining ijodida ham sezilib turadi. Samarqand vohasi kulolchilik maktabi namoyandalari sopol buyumlarda zangori, qo'ng'ir-sariq ranglar orqali bezash uslubini keng qo'llaganlar. Mazkur bezash uslubida qo'rg'oshin siri ishlatilganligi uchun sariq, qizg'ish, qo'ng'ir ranglar majmuasining barcha komponentlari mujassamlashgan. Ranglar falsafasini tadqiq etgan mutaxassislarining fikricha, "oq rang poklik, ozodlik, yorug'lik, baxt, omad ramzi; oq gullar tabiatni pokiza saqlashga, ruhiy poklikka undaydi; yashil rang islom dini e'tiqodi, iymon butunligi, ulug'lik, valiylik ramzi, tabiat rangi; havo rang koinot cheksizligi, tinchlik, yomon ko'zlardan asrash ramzi, sariq, zarg'aldoq rangli gul – ziyo, go'zallik, dunyo go'zalligi, qalb go'zalligi; havorangli novda – inson hayot chizig'ini nihoyatda notekisligini anglatadi; sarg'ish zarg'aldoq rangli novda – insonlarni ziyo yo'lida yurgan hayot chizig'ini va bu yo'l oltinga o'xshash go'zalligini bildiradi"¹⁴. Usta kulollar ranglardan foydalanishda mazkur ramzlarni keng qo'llaganlar. Har bir hudud kulolchilik asarlaridagi ranglarning bir-biridan farqi yohud o'xshashligiga sabab o'sha hudud aholisining mentaliteti, qadriyatlari sanaladi. Buxoro va Toshkent kulolchilik maktablari bilan bir qatorda Samarqand kulolchilik maktabida ham sopol buyumlarni ikki turda, ya'ni kuydirilgan, sirlanmagan qizg'ish sopol va sirlangan guldor sopol shaklida yasashgan.

¹⁴ Bulatov S., Tolipov N. Go'zallik falsafasi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – B. 17.

Samarqand noni – voha brendi hisoblanadi. Eng mashhur “Noni osiyoi – Samarqandning Galaosiy mahallasidan boshqa yerda tayyorlab bo‘lmaydi”¹⁵ deyilgan afsonaviy non hisoblanadi. Samarqand nonvoylari tayyorlaydigan nonlar, asosan, hunarmand-ustalar yashaydigan mahallalar nomi bilan atalgan. Masalan, “Noni osiyoi” noni Samarqanddagi mashhur Galaosiy mahallasi nomi bilan, “Noni zargaroni” noni esa zargarlar mahallasi nomi bilan atab kelingan. Bundan tashqari, vohada chorvador aholi kundalik mashg‘ulotidan kelib chiqib, “Noni tafton”, ya’ni qovurilgan yupqa nonni iste’mol qilishgan. Chunki bu non turini tayyorlash uchun tandir shart bo‘lmagan va tayyor ko‘chma o‘choqlarda tayyorlangan. Hozirgi kunda Samarqand shahrida “Noni osiyoi” mashhur bo‘lsa, qishloq joylarida aholi “Obaki non”ni ma’qul ko‘rishadi.

Voha ma’naviy-diniy madaniyati ham o‘ziga xos. Masalan, vohada hanuz “Bibisheshanba” marosimi o‘tkazilib kelinadi. Bibisheshanba ip yigiruvchilar va to‘quvchilarning homiysi sanaladi. Mazkur marosim islom dini kirib kelishidan oldin ham aholi orasida mavjud bo‘lgan bo‘lsada, keyinchalik uni islom diniga bog‘lashgan. Bugungi kunda Bibisheshanba marosimi bihalfa tomonidan Qur’on oyatlarini o‘qish bilan boshlanadi hamda Bibisheshanba haqidagi afsona bilan davom ettiriladi.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, Samarqand vohasi aholisi o‘zining moddiy va ma’naviy madaniyatini rivojlantirishda hududda yashovchi millat hamda elatlarning tarixiy birligi va o‘zaro yaqin madaniy tafakkuri, qarashlariga asoslangan. Samarqand vohasida qadimdan o‘zbeklar, tojiklar, eroniylar, arablar va boshqa millatlarning istiqomat qilishi ularning etnik madaniyati ta’sirida yagona voha madaniyati shakllanishiga turtki bo‘lgan.

Ikkinchi bob **“Samarqand vohasi subetnik madaniyati: o‘zaro aloqadorlik va farqlar”** deb nomlanadi. Bobda vohadagi etnik guruhlarining tasnifi va madaniyati hamda Samarqand vohasi me’morchiligi: an’anaviylik va zamonaviylik dialektikasi masalalari ilmiy tahlilga tortilgan.

O‘zbekiston hududi, jumladan, Samarqand vohasi qadimdan turli etnos vakillari ahil-inoq istiqomat qiladigan makon hisoblanadi. Etnik guruh vakillarining hududiy yaqinlik belgisi ularning ijtimoiy-madaniy hayotida uyg‘unlikka olib kelgan. Bugun o‘ndan ziyod millat vakillari: tojik, eroniy, turkman, qozoq, rus, tatar, koreys, ukrain, arman, qirg‘iz, ozar, yahudiy va boshqa millat vakillari titul millat – o‘zbeklar bilan birgalikda tinch-totuv yashab kelishmoqda.

Hozirgi kunda Zarafshon vodiysi, xususan, Samarqand viloyatida Maxmud Koshg‘ariyning asarida ta’kidlab o‘tilgan 92 o‘zbek urug‘ining deyarli barchasi istiqomat qilishadi. Zarafshon (Miyonqol) vodiysi o‘zbek xalqi etnik guruhlarining shakllanish tarixini o‘rgangan tadqiqotchi N.Elmuurodovning ma’lumotiga ko‘ra, “bu urug‘larning tumanlar kesimida tarqalishi va urug‘ nomlarining etimologiyasi tahliliga ko‘ra, nayman urug‘i o‘n uch tumanda, turkman, xo‘ja va eshonlar to‘qqiz tumanda, mang‘it va xitoy urug‘lari sakkiz tumanda, qipchoq, saroy, bahrin, beklar etnik guruhlar yettita tumanda, ming, barlos, qirq etnik guruhlar oltita tumanda, tuyoqli, mo‘ytan etnik guruhi beshta tumanda, burqut, arab, qiyot etnik guruhlar

¹⁵ Mahmudov K. Non – aziz rizq-ro‘zimiz. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1988. – B. 15.

to'rtta tumanda istiqomat qilishadi"¹⁶. Shuningdek, qoraqalpoqlar ham besh aymoq (qoraqo'yli, qora singir, oymovut, istek, ochamayli)dan iborat bo'lib, ularning bir qismi Samarqandning shimolida Oqtepada yashashadi.

Bugungi kunda mang'itlar Samarqand viloyatining 8 ta tumanida, ya'ni Bulung'ur, Jomboy, Kattaqo'rg'on, Narpay, Nurobod, Pastdarg'om, Qo'shrabot va Paxtachi tumanlarida istiqomat qilishadi. Zarafshon daryosining o'rta oqimida, Ishtixon, Oqdaryo, Payariq va Qo'shrabot tumanlarida qo'ng'iroq, qipchoq, turkman, jaloyir va boshqa etnik birliklar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi.

A.Mamanov "o'zbek turkmanlari, ya'ni Nurota turkmanlari ikkita katta guruhga (yigirma to'rt ota va besh ota manqishlov) bo'linadi. Bu guruhlar ham, o'z navbatida, bir necha qabila va urug'larga bo'lingan. Masalan, g'ozayoqli, bo'gajili, qonjig'ali, baroq va boshqalar"¹⁷, – deb yozadi. Muallifning fikricha, ularning lahjasida "y" harfi o'rniga "j" harfi ishlatiladi.

Samarqand vohasida keng tarqalgan urug'lardan yana biri bu Jaloyir urug'idir. Jaloyir qabilasi etnogenezi to'g'risida Rashiddinning "Jome' ut-tavorix", Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" va Abulg'oziyning "Shajarayi turk" kabi tarixiy asarlari muhim manbalar hisoblanadi.

Bugungi kunda voha hududida turli etnik millatlar: o'zbek, tojik, eroniy, qoraqalpoq, qozoq, rus, qirg'iz, turkman, tatar, koreys, ozarbayjon, afg'on, ukrain, belorus, yahudiy va boshqa millat vakillari istiqomat qilishadi. Xususan, 2023-yil holatiga ko'ra, vohada 3 mln. 858 ming nafar (95,3 %) bilan o'zbeklar eng ko'p aholi sonini tashkil etadi. Vohadagi ikkinchi katta etnik millat bu tojiklar hisoblanadi. Tojiklar 134 ming 903 nafar (3,3 %)ni tashkil etib, asosan, vohaning shimoliy qismi, ya'ni Tojikiston bilan chegaradosh tumanlarida: Samarqand shahrida (14,8 %), Samarqand tumanida (12,7 %), Urgutda (1,5 %), Jomboy tumanida (0,7 %) va Toyloq tumanida (0,2 %) istiqomat qilishadi. Shuningdek, viloyatning g'arbiy qismida, ya'ni Pastdarg'om (1,0 %) va Nurobod tumanlarida (1,9 %) ham tojik millatli aholi mavjud.

Tojik millati qadim davrlardan buyon mahalliy o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelgan. Tojik tili kelib chiqishi nuqtai nazaridan eroniy tillar oilasiga mansub bo'lsa-da, Samarqand, Buxoro viloyatlarida istiqomat qilib kelayotgan tojiklar madaniyat, kundalik turmush tarzi, dunyoqarashlari jihatidan turkiy etnik guruh vakillariga juda yaqindir.

Voha eroniylari ham Samarqand etnomadaniyatiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Samarqandda tojiklar va eroniylar orasida madaniy yaqinlik mavjud bo'lib, buni tojik va fors tilining eroniy tillar tarmog'iga kirishi bilan izohlash mumkin. Tarixiy manbalar guvohlik beradiki, eroniylar Movarounnahr hududiga Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida muqim o'rnashib qolganlar. Eroniylarning mahalliy aholi bilan yaqinlashuvi qisman bo'lgan, ya'ni diniy-e'tiqodiy tafovut natijasida to'liq qo'shilish amalga oshmagan. Bugungi kunda ham eroniylar Samarqand shahrining "Panjob" (52 %), "Yuqori Xo'ja Soat" (49 %), "O'rta Xo'ja

¹⁶ Elmurodov N. Zarafshon (Miyonqol) vohasi o'zbek xalqi etnik guruhlari. – Samarqand: SamDChTI, 2008. – B. 51-53.

¹⁷ Mamanov A. Oqtepa tarixi. – Samarqand, 2002. – B. 10.

Soat” (48 %), “Xo‘ja Soat” (39 %), “Bo‘ston” (33 %), “Madadkor” (34 %) va Quyi Xo‘ja Soat” (28 %) mahallalarida hamda Samarqand tumanining “Do‘stlik” (43 %) mahallasida istiqomat qilishadi. Shuningdek, Pastdarg‘om tumanida ham qisman eroniylarning manzillari mavjud.

Samarqand vohasi me‘morchiligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Afrosiyob shaharsozligi qadimgi Samarqand me‘morchilik san‘atini o‘zida to‘liq aks ettirgan arxeologik yodgorlik sanaladi. Mazkur yodgorlik 219 gektar maydonni egallagan bo‘lib, qadimgi va o‘rta asrlardagi Samarqand shahrining o‘rni hisoblanadi. Afrosiyob shaharchasi devor ichi yo‘lakli va shinaklardan iborat mukammal mudofaa tizimiga ega bo‘lgan. Mudofaa devorlari shaharning harbiy-ma‘muriy qismi bo‘lgan akropolni o‘rab turgan. Shahar hududining asosiy qismida guzar va mahallalar qurilgan. Samarqand atrofida temirchi, to‘quvchi, kulol va dehqonlarning turar-joylari mavjud bo‘lgan. Miloddan avvalgi VII asr boshlarida Afrosiyob shahrining shakllanish bosqichi to‘liq yakunlangan. Shaharlashuv jarayoni tashqi dushmanlardan mudofaa istehkomlarini qurishni talab etgan. Afrosiyobning mudofaa devorlari paxsa va xom g‘ishtlardan qurilgan bo‘lib, tashqi dushmanlardan himoyani mustahkamlagan. Afrosiyobning birinchi mudofaa devori yuzasi yumaloq g‘ishtlardan qurilgan bo‘lib, mustahkam so‘g‘d qurilish an‘analarining boshlanish davri hisoblanadi.

Ellinizm davri So‘g‘d me‘morchiligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lib, bunda aholining zichlashuvi qurilish uslublarini o‘zgartirishga olib kelgan. Aholining to‘g‘ri burchakli hamda kvadrat shaklidagi qo‘rg‘onlari paydo bo‘la boshlagan.

Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, Samarqand vohasi o‘zbeklarining aksariyat qismi XIX asrning 20-yillarigacha yarim ko‘chmanchi turmush tarzi madaniyatini saqlab kelishgan. Bu esa, o‘z navbatida, aholi tomonidan uy-joy binolarini mavsumiy (fasllarga qarab) yoki ma‘lum maqsadga binoan (chorvani boqish va saqlash uchun) qurishni taqozo etgan. Voha o‘troq aholisining turar joylari o‘rganilganda, eski uylar va binolar paxsa (loy)dan qurilganini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, Zarafshon vohasi tog‘ yonbag‘irlarida istiqomat qiluvchi aholining turar joylarida, asosan, yog‘ochdan foydalanilgan.

Hozirgi kunda Samarqandda 1105 ta arxeologik, 670 ta me‘moriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental, 21 ta me‘morial toifaga kiruvchi jami 1851 ta moddiy-madaniy meros obyekti mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi”ning ma‘lumotlariga ko‘ra, 2002-2015-yillar davomida Respublikamiz bo‘yicha 1004 ta, Samarqand viloyatida esa 210 ta madaniy meros obidalari davlat budjeti va homiylar hisobidan ta‘mirlab tiklangan hamda obodonlashtirilgan¹⁸.

